

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA SPAZOVERIN

Preparatning savdo nomi: Spazoverin

Ta'sir etuvchi modda (XPN): drotaverin

Dori shakli: tabletkalar

Tarkibi:

Har bir tabletka quyidagilarni saqlaydi:

faol modda: 40 mg drotaverin gidroxloridi;

yordamchi moddalar: makkajo'xori kraxmali 35,50 mg, mikrokrystall selluloza 52,33 mg, polivinilpirrolidon K-30 3 mg, magniy stearati 1,5 mg, tozalangan talk 3 mg, natriy kraxmal glikolyati 2,67 mg, izopropil spirti, tozalangan suv.

Ta'rif: sariq rangli dumaloq, ikki tomonlama qavariq tabletkalar.

Farmakoterapevtik guruhi: spazmolitik vosita.

Kod ATX: A03AD02

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Miotrop spazmolitik. Kimyoviy tarkibi va farmakologik xususiyatlari papaveringa yaqin, ammo kuchli va uzoq ta'sir ko'rsatadi. Silliq mushak hujayralariga Ca^{2+} ni o'tishini kamaytiradi (fosfodiesterazani ingibitsiya qiladi, hujayra ichidagi cAMP to'planishiga olib keladi). Ichki a'zolarining silliq mushaklarining tonusini va ichak perestaltikasini kamaytiradi, qon tomirlarini kengaytiradi. Vegetativ nerv tizimiga ta'sir qilmaydi, markaziy nerv tizimiga o'tmaydi.

Silliq mushaklarga bevosita ta'sir qilishi sababli, M-xolinoblokatorlar guruhidagi preparatlarni qabul qilish mumkin bo'lmagan xollarda, spazmolitik sifatida qo'llash mumkin (yopiq burchakli glaukoma, prostata bezi adenomasi).

Farmakokinetikasi

Peroral qabul qilinganda so'rilishi – yuqori, yarim so'rilish davri 12 minut. Biokiraolishligi - 100% ga teng.

To'qimalarda bir xil taqsimlanadi, silliq mushak xujayralariga o'tadi. T_{max} - 2 soat. Plazma oqsillari bilan bog'lanishi - 95-98%. Asosan buyraklar orqali, kamroq darajada safro bilan chiqariladi. Gematoensefalitik to'siqdan o'tmaydi.

Qo'llanilishi

Funksional holatlarni oldini olish va davolashda, surunkali gastroduodenitda silliq mushaklarning spazmlari bilan bog'liq og'riq sindromida, surunkali xoletsistit, o't-tosh kasalligi, postxoletsistektomik sindromida, me'da va 12 barmoqli ichak yara kasalligi, kardio va pilorospazmlarda, spastik kolitlarda qo'llanadi.

Shuningdek periferik arterial tomirlar, bosh miya tomirlari spazmlarida, buyrak-tosh kasalligi, algodismenoriyada, bachadon qisqaruvchanligini bo'shashtirish uchun va tug'ruq vaqtida bachadon bo'yni spazmlarini bartaraf qilish, instrumental tekshirishlarini o'tkazishda qo'llaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari

Kattalarga ichga 40-80 mg dan sutkasiga 2-3 marta buyuriladi. 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga bir martalik dozada 10-20 mg, 6 yoshdan 12 yoshgacha – 20 mg dan sutkasiga 1-2 marta buyuriladi.

Nojo'ya reaksiyalari

Bosh aylanishi, yurak urishi his qilish kuchayishi, arterial gipotenziya, issiqlikni his etish, ko'p terlash, **terida** allergik reaksiyalar.

Qo'llash mumkin bo'lmagan xolatlar

Preparatning tarkibiy qismlariga yuqori sezuvchanlik. Yaqqol jigar, buyrak, yurak yetishmovchiligi; II-III darajali AV- blokadasi, kardiogen shok, arterial gipotenzialarda qo'llash mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Bir vaqtda qo'llanganda levodopaning **antiparkinson** samarasini susaytirishi mumkin.

Papaverin, bendazol va boshqa spazmolitiklar (shu jumladan M-xolinoblokatorlarni qo'shgan holda ham) ta'sirini, tritsiklik antidepressantlar, xinidin va **prokainamidlar** tomonidan **chaqirgan** gipotenziani kuchaytiradi.

Morfinning spazmogen faolligini pasaytiradi.

Fenobarbital Spazoverinning spazmolitik ta'sirini yaqqoligini kuchaytiradi.

Maxsus ko'rsatmalar

Koronar arteriyalar yaqqol aterosklerozi bo'lgan patsiyentlarga, prostata bezi adenomasida, glaukoma, homiladorlik va laktatsiya davrida preparat ehtiyotkorlik bilan buyuriladi.

Dozani oshirib yuborilishi

Yuqori dozalarda yurak-qorincha bo'lmacha o'tkazuvchanligini buzilishi, yurak mushagining qo'zgaluvchanligini pasaytiradi, yurakni to'xtab qolishi va nafas markazining falajiga olib kelishi mumkin.

Chiqarilish shakli

10 tabletkadan PVX/PVDX va **alyuminiy** folgali **blisterda**.

2 yoki 3 blister tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton qutida.

Saqlash sharoiti

25°S dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.

Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

3 yil.

O'ramida ko'rsatilgan yaroqlilik muddati o'tgach qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berish tartibi

Retseptsiz.

Ishlab chiqaruvchi:

Shreya Layf Sayensiz Pvt. Ltd., Xindiston.

Shreya Xaus, 301/A, Pereira Xil Roud,

Anderi (Ist.) Mumbai, 400099.

O'zbekiston Respublikasi xududida dori vositalarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar) ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:

“Shreya Layf Sainsis Farmatsevtika” chet el korxonasi

100099, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Muqimiy ko‘ch., 178 uy.
Tel/Faks: (99871) 241-73-04, 241-74-04.
E-mail: shreya@shreya.uz, www.shreya.uz